

O'zbekiston Sog'liqni saqlash Xodimlari
kasaba uyushmasi Respublika Kengashi
raisi: F.R.Xanapiyayevga
O'zbekiston Sog'liqni saqlash Xodimlari
kasaba uyushmasi Xorazm viloyat Kengashi
raisi R.Sheniyozovga

TASHAKKURNOMA

Assalamu alaykum hurmatli F.R.Xanapiyayev, hamda R.Sheniyozov. Biz Xorazm viloyari Urganch tuman SEO va JSB sanitariya vrachi yordamchilari I.Abdusharipova, E.Sotimova, M.Sabirova, A.Ollaberganov, T.Normatov, J.Madraximov, X.Xudayberganov, S.Abduraxmonovlar tamonidan Sizning O'zbekiston Respublikasi Sog'liqni saqlash Xodimlari kasaba uyushmasiga yo'llagan murojaatimizni Xorazm viloyati Kengashi inspektori X.Isaqjonov tomonidan ish faoliyatimiz davomida zararli sharoitlarda ishlaganligi uchun SSV ning 276-sonli qarorida ko'rsatilgan ish xaqiga qo'shimcha 15% ustama xaq to'lanishi lozimligi va bu hozirgi kunga qadar to'lanmasdan qoldirilganligi sababli, Xorazm viloyat fuqarolik sudiga da'vo arizasi kiritib, sud jarayonida bizlar bilan birga elkama-elka kurashib, o'z mexnat xaqimizni undirishda amaliy yordam ko'rsatdilar. Sud raislari kiritilgan da'vo arizalarimizni o'z vaqtida, belgilangan tartibda qonun doirasida o'rganib chiqdi va bizning foydamizga adolatli qaror chiqarib berdi. Hozirgi kunda biz sanitariya vrachi yordamchilari:

I.Abdusharipovaga - 20 660 166 so'm.
E.Sotimovaga- 20 413 976 so'm
M.Sabirovaga- 9 713 313 so'm
A.Ollaberganovga- 15 352 095 so'm
T.Normatovga - 14 647 682 so'm
J.Madraximovga - 20 312 190 so'm
X.Xudayberganovga- 14 792 913 so'm.
S.Abduraxmonov- 7 498 378 so'm

Jami: 123390713 (Bir yuz yigirma uch million uch yuz to'qson ming yeti yuz o'n uch) so'm mablag'larimizni undirib berib va keyingi ish faoliyatimiz davomida xam doimiy to'lab borilishiga erishildi. Bu erishilgan yutuqlarimizda Sizning tibbiyot xodimlarini mexnatga oid ijtimoiy-iqtisodiy xuquq va manfaatlarini ximoya qilish qaratgan bilim va salohiyatingiz taqsimiga loiq. Sizga va barcha xodimlaringizga beminnat ko'rsatgan yordamlari uchun chuqur minnatdorchiligimizni bildiramiz. Bundan keyingi faoliyatingizda ulkan zafarlar tilab qolamiz.

Xorazm viloyati SEO va JSB Urganch tuman bo'limi sanitariya vrachi yordamchilari:

I.Abdusharipova

E.Sotimova

M.Sabirova

A.Ollaberganov

T.Normatov

J.Madraximov

X.Xudayberganov

S.Abduraxmonov

